

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

avzalliklar juda ko‘p bo‘lib, asosiy avzalliklardan biri fizika va matematika fanlar bo‘yicha mu‘ltimeiya ma‘ruzalar, vedio darsliklar va flesh animatsion roliklardan foydalangan holda dars jarayoni tashkillashtirilganligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xoljigitov D. et al. DIOFONT TENGLAMALARINI YECHISHDA ZANJIRLI KASRLAR XOSSALARIDAN FOYDALANIB YECHISH USULLARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 282-287.
2. Mamanov S. K. va boshq. biz yashayotgan jamiyatimizda trigonometrik funktsiyalarning amaliy ahamiyati // eng yaxshi ilmiy tadqiqotlar. – 2023. - T. 2023 yil. 13-17 betlar.
3. Dilmurod X., Jo'raboyevich R. N., AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING M. V. M. F. O'QITISH JARAYONIDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. 708711-sahifa.
4. Qahhorov M., Xoljigitov D. Tenglamalar sistemasiga doir misollarni grafik usulda yechish //matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 1.
5. Xoljigitov D., Prnazarov S. H. Tenglamalar sistemasiga doir misollarni grafik usulda yechish // matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 1.
6. Xoljigitov D., MANTIQUIY I. I. G. N. Y. MASALALARNI YECHISH // matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 2.
7. Xoljigitov D., Isroilov I. GRAFLAR NAZARIYASI YORDAMIDA MANTIQUIY masalalarini YECHISH // matematika va informatika jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 2.
8. Xoljigitov D. GEOMETRIYANING ALGEBRAIK TENGLAMALARNIGAE YECHISHGA bazi TATBIQLARI // matematika va informatika jurnali. – 2021. - Jild 1. – №. 3.

SAMARQANDDAGI TARIXIY JOYLARDAN HUNARMANDCHILIK FAOLIYATINI BOSHQA JOYGA KO‘CHIRISHNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

Raimqulova Marjona Ixtiyor qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Psixologiya fakulteti Turizm va Mehmondo‘stlik yo‘nalishi 242-24-guruh talabasi

Email: marjonaraimqulova78@gmail.com

Ilmiy rahbar: G‘oyibnazarova Shahnoza

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali assistenti

Email: bambuchiibijuteriy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand shahridagi tarixiy obidalar, xususan Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi va boshqa yodgorliklar atrofida olib borilayotgan hunarmandchilik faoliyatining ahamiyati hamda uni boshqa joyga ko‘chirish zarurati tahlil qilinadi. Maqolada bunday ko‘chirishning ijobiy (davlat, madaniyat va atrof-muhit uchun) va salbiy (iqtisodiy, ijtimoiy, turizm sohasiga) ta’sirlari yoritilgan. Shuningdek, muammoni muvozanatli hal etish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: hunarmandchilik, iqtisodiy-ijtimoiy soha, ko‘chirish, zamburug‘lar, moss (moss).

Kirish

Samarqand – O‘zbekistonning eng qadimiy va eng ko‘p sayyoh tashrif buyuradigan shaharlardan biridir. Bu yerda joylashgan Registon maydoni, Ulug‘bek madrasasi, Bibi Xonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi va boshqa tarixiy yodgorliklar nafaqat milliy, balki jahon madaniy merosi sifatida e’tirof etilgan. So‘nggi yillarda ushbu joylarda turizm rivoji bilan birga hunarmandchilik mahsulotlari savdosi ham kengayib bordi. Qo‘l mehnati bilan yaratilgan buyumlar — zardo‘zlik, kulolchilik, misgarlik, ipak mahsulotlari — sayyohlar uchun qimmatli suvenir sifatida qadrlanadi. Shu bilan birga, bu faoliyatning tarixiy obidalarga yaqin joyda olib borilishi muhofaza masalalarini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, hunarmandchilikni tarixiy hududlardan boshqa joyga ko‘chirish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

Asosiy qism

Samarqand va shu kabi shaharlarda hunarmandchilik bilan shug‘ullanish davlat iqtisodiyotiga katta daromad olib keladi. Shuningdek turistlar oqimini keskin ko‘paytiradi, turli xil suverinlar, hunarmandchilik mahsulotlari madaniy va ma’rifiy sohani ommaga taqdim etish hamda, o‘zligimizni saqlab qolish uchun juda yaxshi yo‘l hisoblanadi. Bu nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki madaniy diplomatiya vositasidir. Samarqandlik ustalarning ishini bevosita ko‘rish turistlarga katta taassurot qoldiradi. Shu bois hunarmandchilik faoliyati turizm rivojining muhim bo‘lagi hisoblanadi. Biroq bu faoliyatni bevosita yodgorliklar atrofida olib borish bir qator xavf va muammolarni keltirib chiqaradi. Yuzlab odamlarning harakatlanishi tufayli pollar, zinalar, tosh qoplamalar tez eskiradi, elektr, ochiq olov yoki stendlar obidalar strukturasi zarur yetkazadi, axlat va chiqindilar tarixiy joylarning ekologik holatini yomonlashtiradi, shovqin, tirbandlik va reklamalar obidaning estetik go‘zalligini kamaytiradi. Bundan tashqari, Samarqanddagi tarixiy obidalar — Registon, Ulug‘bek madrasasi, Sherdor va Tillakori majmualari — o‘zining qadimiy me’morchilik uslubi, nafis g‘isht terishlari va tabiiy tosh zaminlari bilan ajralib turadi. Ushbu inshootlar asrlar davomida namlik, harorat o‘zgarishi va inson omillariga nisbatan juda sezgir bo‘lib kelgan. Shuning uchun har qanday tashqi ta’sir, xususan, hunarmandchilik faoliyati bilan bog‘liq tozalash ishlari va namlikning ortishi, binolarning asliy holatiga zarar yetkazishi mumkin. Kunlik hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash yoki tozalash jarayonida suvdan foydalanish tabiiy holatdir. Biroq, agar bu ishlar bevosita tarixiy binolarning tagida yoki yaqin hududda amalga oshirilsa, zamin tagiga namlik kirib borishi boshlanadi.

Samarqanddagi ko‘plab obidalar g‘isht, tosh va ohak qorishmasidan ishlanganligi sababli, ular suvni o‘ziga singdirish xususiyatiga ega. Namlik asta-sekin g‘isht orasiga o‘tib, ichki devorlarni yemira boshlaydi, sirt qoplamalarida sho‘r chiqishi, rang o‘zgarishi, devor qoplamalarining qopqonib tushishi kabi holatlar yuzaga keladi. Bundan tashqari, har kuni tovarlar va buyumlarni joylashtirish, ularni suv bilan artish, changni yuvish jarayonlari zamin ostida kapillyar namlik paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan obida poydevoriga zarar yetkazadi, ayniqsa eski poydevorlarda suv harakati to‘planib, tuproqning zichligi pasayadi, natijada bino tagida cho‘kish yoki mikro yoriqlar yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, bu namlik bilan birga turli mikroorganizmlar, zamburug‘lar va moss (yosun) turlari paydo bo‘ladi. Ular devor yuzasida yashil dog‘lar hosil qilib, tosh va g‘isht tarkibini yemiradi. Vaqt o‘tgan sayin bu holat binoning tashqi ko‘rinishini ham, ichki mustahkamligini ham buzadi. Yana bir muhim jihat — hunarmandchilik buyumlarini tayyorlashda ishlatiladigan tabiiy bo‘yoqlar, laklar, yog‘lar va metall changlar havoda aylanib, tarixiy devorlarning sirtiga yopishadi. Bu esa obidalar yuzasidagi asl bezaklar va naqshlarning rangi so‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham, agar hunarmandchilik faoliyati tarixiy joylarda davom ettirilsa, suvdan foydalanish va tozalash ishlari qat’iy nazorat ostida bo‘lishi shart. Aks holda, bugungi kunda jahon miqyosida qadrlanayotgan Registon majmuasi kabi obidalar asta-sekin ichki yemirilish jarayoniga duchor bo‘ladi.

Hunarmandchilik faoliyatini o‘zgacha uslubda davom etish yoki boshqa joyga ko‘chirish – bu faqat savdoni emas, balki madaniy merosni saqlash jarayonini ham tartibga soluvchi chora hisoblanadi. Tarixiy obidalarda ko‘p sonli odamlar harakati, doimiy savdo rastalari, chang va issiqlik asarlarining havoda tarqalishi binolarning tabiiy holatiga zarar yetkazadi. Ayniqsa, qadimiy ganch, koshin, yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatilgan devorlar namlik, tebranish va shovqin ta’sirida sekin-asta yemiriladi. Shuningdek, elektr simlari, yoritish moslamalari yoki stendlardan foydalanish ham yodgorlikning asl me’moriy qiyofasini o‘zgartiradi.

Biroq, hunarmandchilikni tarixiy joylardan ko‘chirishning salbiy tomonlari ham mavjud. Hunarmandchilik — bu xalqning ko‘p asrlik an‘analari, madaniy merosi va milliy o‘zligining ajralmas qismidir. Ayniqsa Samarqand kabi qadimiy shaharlar uchun hunarmandlar nafaqat mahsulot ishlab chiqaruvchilar, balki tarixiy joylarga jon bag‘ishlaydigan tirik meros vakillaridir. Shu sababli, ularning faoliyatini tarixiy obidalardan butunlay ko‘chirish ayrim salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, madaniy muhitning tabiiyligi yo‘qoladi. Registon yoki Bibixonim, Shohi Zinda kabi joylarda hunarmandlarning mavjudligi sayyohlarga O‘zbekistonning tirik madaniyatini his qilish imkonini beradi. Ular nafaqat tarixni tomosha qiladi, balki o‘z ko‘zi bilan milliy san’at, naqsh va kasb an‘analarining davom etayotganini ko‘radi. Agar hunarmandchilik bu joylardan uzoqlashtirilsa, tarixiy joylar “muzeydek sokin va jonlanishsiz” holatga keladi. Ikkinchidan, madaniy merosning jonli uzviyligi uziladi. Tarixiy joylarda hunarmandchilik faoliyati o‘tmish bilan bugunning ko‘prigi sifatida xizmat qiladi. Masalan, qadimiy madrasa yonida zardo‘z, kulol yoki misgar ishlayotganini ko‘rgan sayyoh o‘tmish hunarini bugun ham yashayotganini his qiladi. Agar bu faoliyat boshqa joyga ko‘chirilsa, tarixiy joylar faqat tosh va g‘ishtdan iborat muzeylarga aylanadi.

Shuningdek, yangi joyga ko‘chirish uchun infratuzilma xarajatlari — yangi savdo markazlari qurish, reklama va yo‘l tizimini o‘zgartirish uchun qo‘shimcha mablag‘ talab etiladi. Bu esa davlat yoki mahalliy byudjetga ortiqcha yuk tushiradi. Umuman olganda, hunarmandchilikni tarixiy joylardan butunlay olib chiqish — bir tomondan obidalarni himoya qilsa-da, boshqa tomondan madaniy hayotning tabiiy muvozanatini buzadi, turizm jozibasini pasaytiradi va iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir qiladi. Shu sababli, mutaxassislar bunday holatlarda “ko‘chirish emas, balki tartibga solish” yo‘lini tanlashni maqsadga muvofiq deb bilishadi.

Ammo tatibga solishni yuqoridagi kabi boshqa usulda ham amalga oshirsa bo‘ladi. Samarqand shahridagi Registon, Bibixonim, Shohi Zinda kabi tarixiy obidalar O‘zbekiston madaniy merosining bebaho durdonalaridir. Shu bilan birga, bu joylarda faoliyat yuritayotgan hunarmandlar ham o‘z san‘atlari bilan xalqimiz madaniyatini dunyoga tanitib kelmoqda. Biroq ba‘zan hunarmandchilik faoliyati tarixiy inshootlarga zarar yetkazishi, namlik, ifloslanish va ortiqcha yuklama keltirishi mumkin. Shuning uchun bunday muammolarni hal etish uchun muvozanatli va uzoq muddatli yechimlar zarur. Birinchidan, hunarmandlar faoliyat yuritadigan joylar tarixiy binolarning ichida emas, balki atrofida maxsus ajratilgan pavilyonlarda tashkil etilishi kerak. Bu pavilyonlar obidalar me‘moriy ko‘rinishiga mos tarzda loyihalansa, ularning go‘zalligiga xalaqit bermaydi. Shu bilan birga, sayyohlar ham tarixiy muhitdan uzoqlashmasdan milliy mahsulotlar bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Ikkinchidan, hunarmandlar ishlaydigan joylarda namlikni nazorat qilish tizimi o‘rnatilishi zarur. Har bir ustaxona yoki savdo joyida suv to‘planib qolmasligi uchun drenaj tizimi, havoni quruq saqlovchi ventilyatsiya vositalari bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, suv bilan ishlaydigan hunarmandlarga “quruq tozalash” usullaridan foydalanish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazilishi mumkin. Bu chora obidalar tagida namlik to‘planishining oldini oladi. Uchinchidan, tarixiy joylarda to‘liq ishlab chiqarish emas, balki ko‘rgazmaviy (demonstratsion) faoliyat yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Ya‘ni, ustalar o‘z mahsulotlarini shu joyda tayyorlamaydi, balki sayyohlarga qisqa ko‘rsatma shaklida jarayonni namoyish qiladi. Bu usul orqali obidalarga zarar yetmaydi, lekin turistlar uchun qiziqarli madaniy tajriba saqlanib qoladi. To‘rtinchidan, agar ayrim hunarmandlar faoliyatini tarixiy joylardan boshqa joyga ko‘chirish zarur bo‘lsa, bu jarayon rag‘batlantirish asosida amalga oshirilishi kerak. Masalan, ularga yangi joyda bepul ustaxona ajratish, soliq yengilliklari berish yoki reklama imkoniyatlarini yaratish orqali bu o‘tish bosqichi yengillashtiriladi. Shuningdek, shahar markazida “Hunarmandlar galereyasi” yoki “Madaniy ko‘chalar” loyihasini yaratish samarali bo‘ladi. Bu joylar bir vaqtning o‘zida ham savdo, ham madaniy markaz vazifasini bajaradi. Sayyohlar tarixiy obidani tomosha qilib bo‘lgach, shu galereyada milliy buyumlar, zargarlik, kulolchilik va zardo‘zlik mahsulotlarini xarid qila oladi. Shuningdek tarixiy binolarni yonida virtual hunarmandlarni ishlash jarayonlari hamda faoliyati bilan bog‘liq ishlar ko‘rgazmali ko‘rsatilsa turistlar uchun ham qiziq bo‘ladi va ularda hunarmandchilik uylarining aniq manzillari ham bayon etilsa, ular nafaqat virtual ko‘rishadi balki, ular o‘zkari ham bevosita ish jarayonida ishtirok etishadi. Bu turistlar oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston xalqaro tajribadan ham foydalanishi kerak. Masalan, Turkiyadagi Istanbul “Kapali Chorshu”

bozori yoki Italiyadagi Florensiya ustaxonalar zonasi tarixiy joylarga zarar yetkazmagan holda hunarmandchilikni rivojlantirishda muvaffaqiyatli misollardir. Samarqandda ham shunga o‘xshash madaniy zonalar tashkil etilsa, bu ikki sohaning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu yechimlar orqali tarixiy obidalar himoyalani, hunarmandlar o‘z faoliyatini davom ettiradi, sayyohlar esa o‘zbek madaniyatining jonli ruhi bilan tanishadi. Bu esa nafaqat madaniy, balki iqtisodiy foyda ham keltiradi.

Xulosa

Samarqand — o‘zining boy madaniy merosi, noyob me‘moriy yodgorliklari va qadimiy hunarmandchilik an‘analari bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan shahar. Bu maskanning qadri shundaki, undagi har bir g‘isht, har bir naqsh, har bir minoraning o‘z tili, o‘z hikoyasi bor. Shu bois, bunday muqaddas joylarda amalga oshiriladigan har qanday faoliyat, xususan, hunarmandchilik ishlari ham yuksak mas‘uliyat va ehtiyotkorlik bilan yo‘lga qo‘yilishi lozim. Hunarmandchilik — milliy o‘zligimizni ifoda etuvchi san‘atdir. U xalqning iste‘dodi, didi va ijodiy ruhi ifodasi bo‘lib, iqtisodiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega. Biroq tarixiy yodgorliklar ichida yoki ularning bevosita atrofida tartibsiz faoliyat yuritilishi obidalar muhitiga zarar yetkazishi, ularning tabiiy muvozanatini buzishi, hatto asrlar davomida saqlanib kelgan tuzilmalarning yemirilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, bunday joylarda hunarmandchilikni rivojlantirishda asosiy e‘tibor — saqlash va moslashtirish muvozanatini ta‘minlashga qaratilishi zarur. Eng maqbul yechimlardan biri sifatida, tarixiy markazlardan nisbatan uzoqroq joyda, ammo sayyohlar uchun qulay masofada maxsus ko‘rgazma pavilyonlari va hunarmandlar shaharchalari barpo etish taklif qilinadi. Bu orqali milliy mahsulotlar namoyishi davom etadi, ammo tarixiy obidalar xavfsizligi kafolatlanadi. Bundan tashqari, hunarmandlar faoliyati uchun aniq me‘yoriy qoidalar, atrof-muhitni muhofaza qilish talablari, namlik va changga qarshi texnik choralar joriy etilishi lozim. Bu yondashuv, nafaqat moddiy madaniyatni saqlash, balki turizm sohasining barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Davlat va mahalliy idoralar tomonidan tarixiy merosni asrab-avaylash bilan birga, milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash siyosatini uyg‘unlashtirish, ta‘lim muassasalari orqali yosh avlodga qadimiy kasblarni o‘rgatish — bu sohada uzoq muddatli natijalarga erishishning eng to‘g‘ri yo‘lidir. Natijada, Samarqand nafaqat o‘zining tarixiy ulug‘vorligini, balki zamonaviylik bilan uyg‘unlashgan milliy san‘at markazi sifatidagi mavqeini ham mustahkamlaydi. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekistonni dunyo miqyosida yanada jozibador va nufuzli turizm manziliga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Hunarmandchilikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4639-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2019.

3. UNESCO. World Heritage and Sustainable Tourism Programme. — Paris, 2020.
4. Abdullayev, S. “Samarqandning tarixiy obidalar va ularni saqlash masalalari.” — O‘zbekiston tarixi jurnali, №3, 2021, 45–52-betlar.
5. Karimova, D. “Turizm sohasida milliy hunarmandchilikni rivojlantirish yo‘nalishlari.” — Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali, №6, 2022.
6. Paskaleva, K. “Samarkand Refashioned: Heritage Conservation and Urban Change.” — Silk Road Journal, Vol. 11, 2013.
7. Jalilov, A. “O‘zbekiston tarixiy shaharlarida turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirish muammolari.” — Turizm va madaniy meros, 2020.
8. UNWTO. Cultural Heritage and Tourism: Managing the Interface between Conservation and Development. — Madrid, 2018.
9. Rasulova, M. “Hunarmandchilik va turizmning integratsiyasi: Samarqand tajribasi.” — O‘zbekiston iqtisodiyoti va jamiyat rivoji jurnali, №4, 2023.
10. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. “Tarixiy yodgorliklarni saqlashda ekologik xavfsizlik choralari.” — Toshkent, 2021.

IQTIDORLI TALABALARGA MO‘LJALLANGAN O‘QUV-USLUBIY INTERAKTIV XIZMAT KO‘RSATUVCHI DASTURIY TA‘MINOTNING TARKIBIY TUZILMASI

Xoljigitov Dilmurod Xolmurod o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o‘qituvchisi
xoljigitovdilmurod93@gmail.com

Xoliqova Sevinch, Fayzullayeva Sarvinoz, Erkayeva Hilola
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabalari

Annotatsiya: Iqtidorli talabalarga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy interaktiv xizmat ko‘rsatuvchi dasturiy vositaning tuzilishi va uning o‘ziga hos xususiyatlari, ayrim muammolarini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: talant.atdt.uz veb-sayti, giperbog‘lanish, Servislar menyusi, Kontaktli e-mail.

Iqtidorli talabalarga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy interaktiv xizmat ko‘rsatuvchi talant.atdt.uz sayti yaratildi. talant.atdt.uz veb-sayti informatsion sayt hisoblanib. Informatsion sayt bu mijozlarning virtual uyushmasini tuzish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishda “informatsion to‘siq” ni olib tashlash uchun tashrif buyuruvchilarni maxsulot va xizmat turlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan to‘la-to‘kis bohabar etish uchun xizmat qiladi. Sahifalar tashqi ko‘rinishining ko‘rkamligi (ixchamligi) bilan ajratib turadi, chunki bu Veb - saytdagi barcha elementlar kerakligi axborotlarni tez va qulay usulda qidirib topish uchun xizmat qiladi. Veb saytning normal ishlashi uchun foydalanuvchilar bilan teskari bog‘lanish